

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI VA KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR.

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi. Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtirok etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Kurs quyidagi tartibda o'tadi: ma'ruzalar davomida talabalar kurs bo'yicha tegishli nazariy bilimlar oladi. Har bir talaba bajarilish muddati ko'rsatilgan, mustaqil ish ko'rinishiga ega bo'lgan 5 ta topshiriq oladi. Semestr bo'yicha talabalar bir marta oraliq nazoratidan o'tadilar. Amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlarini bajarish vaqtida o'qituvchilar ma'ruza mashg'ulotlarida olingan nazariy bilimlarini amalyotda qo'llashni namoyish etadilar. Har bir amaliy va laboratoriya ishlari mashg'ulotlari oxirida talabalar 5 tadan (jami 10 ta) topshiriqlar oladilar. Semestr bo'yicha amaliy mashg'ulotlardan 5 ta, laboratoriya ishlari bo'yicha 5 ta topshiriqlarni bajaradilar.

Mustaqil ta'lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi. Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki yozma) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 9–2018–son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

4.1. Kreditlarni olish uchun talabalar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirishi, mustaqil ish topshiriqlarini bajarishi lozim.

1.–jadval

Kredit to'plash mezonlari (1–semestr uchun 4–kredit)

1–kredit	1–4 ma'ruzalar, 1–2 amaliy mashg'ulot, 1–2 laboratoriya mashg'uloti va 14 soat mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi lozim.
2–kredit	5–7 ma'ruzalar, 3–4 amaliy mashg'ulot, 3–4 laboratoriya mashg'uloti va 16 soat mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi lozim.
3–kredit	8–11 ma'ruzalar, 5–6 amaliy mashg'ulot, 5–6 laboratoriya mashg'uloti va 14 soat mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi lozim. 1–ON ni topshirishi lozim.
4–kredit	12–15 ma'ruzalar, 7–8 amaliy mashg'ulot, 7 laboratoriya mashg'uloti va 16 soat mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi va YaN ni topshirishi lozim.
1–semestr	4–kredit.
Kredit to'plash mezonlari (2–semestr uchun 4–kredit)	
1–kredit	16–19 ma'ruzalar, 9–10 amaliy mashg'ulot, 8–9 laboratoriya mashg'uloti va 14 soat mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi lozim.
2–kredit	20–22 ma'ruzalar, 11–12 amaliy mashg'ulot, 10–11 laboratoriya mashg'uloti va 16 soat mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi lozim.
3–kredit	23–26 ma'ruzalar, 13–14 amaliy mashg'ulot, 12–13 laboratoriya mashg'uloti va 14 soat mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi lozim. 2–ON ni topshirishi lozim.
4–kredit	27–30 ma'ruzalar, 15 amaliy mashg'ulot, 14–15 laboratoriya mashg'uloti va 16 soat mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi va YaN ni topshirishi lozim.
2–semestr	4–kredit.
1–2 semestrlar:	8–kredit.

2. Talabalarining bilimi quyidagi mezonlar asosida:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda–4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda–3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabanning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor–o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalarga tegishli ta'lim yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

Talabalar o'zlashtirishini baholash. Kursning nazariy qismi bo'yicha semester davomida bir marta oraliq nazorati o'tkaziladi. Talabalarining fanlarni o'zlashtirishi 5 ballik tizimda baholanadi.

2–jadval

Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi mezonlari:		
T/r	Talabanning fanni o'zlashtirish darajasi (bilim, malaka va ko'nikma darajasi)	Baho
A)	Xulosa va qarorlar qabul qilish	"5" baho
	Ijodiy fikrlay olish	
	Mustaqil mushohada yurita olish	
	Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish	
	Mohiyatini tushunish	
	Bilish, aytib berish	
B)	Tasavvurga ega bo'lish	"4" baho;
	Mustaqil mushohada yurita olish	
	Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish	
	Mohiyatini tushunish	
V)	Bilish, aytib berish	"3" baho;
	Tasavvurga ega bo'lish	
	Mohiyatini tushunish	
G)	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik	"2" baho;
	Bilmaslik	